

O'QUVCHILARNING IJTIMOIIY-MADANIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA "O'QISH SAVODXONLIGI" FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Shomuratova Sevara Charsham qizi
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogikauniversiteti 1-bosqich magistranti.

Anotatsiya:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarini rivojlantirishda "o'qish savodxonligi" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, ma'naviy-axloqiy rivojlantirishning nazariy jihatlarini haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Shaxs, pedagogik, axloqiy, ko'nikma, o'quvchi, axloqiy sifatlar, nazariy, rivojlantirish, o'qish savodxonligi, metodika, vosita, ona tili va o'qish savodxonligi, ma'naviyat, o'qish texnikasi, maqsad, erkin fikrlash, pedagogik texnologiya.

Аннотация:

В данной статье рассматривается теоретическое образование «читательской грамотности» и духовно-нравственное развитие в развитии науки в социально-духовном контексте.

Ключевые слова: Личность, педагогический, нравственный, умения, ученик, нравственные качества, теоретический, развитие, читательская грамотность, методика, инструмент, родной язык и читательская грамотность, духовность, техника чтения, цель, свободное мышление, педагогическая технология.

Abstract:

This article discusses the theoretical education of "reading literacy" and spiritual and moral development in the development of science in a socio-spiritual context.

Key words: Personality, pedagogical, moral, skills, student, moral qualities, theoretical, development, reading literacy, methodology, tool, native language and reading literacy, spirituality, reading technique, goal, free thinking, pedagogical technology.

Mamlakat kelajagi, barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog'liq. Shu bois oxirgi to'rt yilda ta'lim sifatini yaxshilash, o'qituvchilar mavqeini yuksaltirish bo'yicha

ko‘p ishlar qilindi. Endi mamlakatimiz yangi davrga qadam qo‘ymoqda. O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish aynan ta‘lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Davlatimiz rahbari bu hayot-mamot masalasi ekanini ta’kidladi. – Bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q. Maktab ta‘limida poydevorni bugundan mustahkam qo‘yishimiz kerak. Bunga barcha e’tiborimiz va resurslarimizni safarbar qilamiz. Qiyin yo‘lni tanlayapmiz, lekin shu yo‘l muammolarni yechadi, – dedi Shavkat Mirziyoyev [1]. Boshlang‘ich ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan bunday keng qamrovli vazifalar, ilmiy asoslangan g‘oyalar, ya’ni ma’lum bir konsepsiya, kompetensiyalar asosida maqsadli yo‘nalishda amalga oshirilgandagina kutilgan natijalarni beradi. Mazkur konsepsiyaning asosini boshlang‘ich ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan yondoshuvlar va g‘oyalar tashkil etadi. Mazkur konsepsiya boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, uning sifati va samaradorligini ta’minlashning ilmiy asoslangan g‘oyalar asosida amalga oshirilishiga qaratilgan. Konsepsiyada ilgari surilgan boshlang‘ich ta‘limni rivojlantirishning nazariy-amaliy g‘oyalari pedagogika fanining yutuqlariga tayanilgan holda belgilab berilgan.

Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars jarayonidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta‘lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantiriladigan kompetensiyalar: kommunikativ kompetensiya - muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi shakllanadi.

Maktablarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini mazmunli tashkil etish uchun o‘qituvchilar quyidagi jihatlarga e’tiborli bo‘lishlari kerak:

Darsni 8-12, 15-20 kishidan iborat guruhlarda tashkil etish.

O‘qishda zamonaviy texnik vositalar foydalanish.

Til o‘rgatishda fan bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, mavzular bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma va ishlanmalardan mustaqil ravishda foydalanish. O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda tilni nazariy jihatdan o‘rganishga, yangi nutqiy ko‘nikmalar hosil qilishga e’tibor qaratish.

Bundan tashqari, ona tili va

o‘qish savodxonligini o‘rgatishda to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmasini shakllantirish va so‘z boyligini muntazam oshirib borish ham

muhim ahamiyatga ega. Bunda texnik vositalar – video va audio

mangnita fonlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi, nima uchun ona tili va o‘qish savodxonligi, bu fan avvalgi holatidan qanday farq qiladi?

Ona tili

nutq, o‘qish va yozish sohasidagi ko‘nikmalarini o‘quvchilar o‘quv mehnatining zaruri

y sharti va vositasi hisoblanadi. O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qabul qilinadigan yozma t ilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Bunda asosiy e 'tibor, tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib loyih alar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. Boshl ang'ich sinf darslarida o'quvchini qalban yuksak, ma'naviy boy qilib tarbiyalashda a jdodlarimiz yaratgan asarlardan foydalanilgan holda bilim berish hamda odob– axloq qoidalariga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi kunda o'quvchilarni ilimli, teran fikrlaydigan qilib tarbiyalash har bir o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. “Kelajak yoshlar qo'lida”. Bolalarni ilk maktabga qadam qoyishi bilan ularga o'z ona tilida fikrlash, yozish, o'qish o'rgatiladi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, fikrini to'liq va mazmunli tushuntirib bera olish qobiliyatlarini shakllantirish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy maqsadidir. Bolalarga fanni o'rgatish, fanga qiziqish va muhabbat uyg'otish katta rol o'ynaydi. Bolalarga fanga qiziqish, muhabbat uyg'otmasa fanga qiziqmaydi va u fanni o'rganishni hohlamaydi. Shuning uchun pedagogik mahoratimizdan foydalangan holda birinchi bo'lib fanga muhabbat uyg'otishimiz darkor. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish nafaqat til ko'nikmalarini egallashiga, balki o'quvchilarni o'z ona tilida izlanishi, yangilik yaratishi va samarali muloqot qilishiga imkoniyat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 28-yanvar kuni maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidan
2. Karimov I. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T: “O'zbekiston”, 2009. 15-b.
3. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda).
4. Qosimova K., Matchanov.S., G'ulomova.X., Yo'ldasheva Sh., Sariyev S. “Ona tili o'qitish metodikasi”. – Toshkent: “Nosir” nashriyoti, 2009. 352 b.
5. U.B.Aydarova., N.Azizova. 1-sinfda O'qish savodxonligi darsligi, 1-qism Toshkent: Novda, 2024 – 77 b.
6. U.B.Aydarova. 2-sinfda O'qish savodxonligi darsligi, 1-qism Toshkent: Novda, 2023 – 78 b.

7. U.B.Aydarova. 2-sinfda O'qish savodxonligi darsligi, 2-qism Toshkent: Novda, 2023 – 78 b.
8. M.E.Toirova. 3-sinfda O'qish savodxonligi darsligi, 1-qism Toshkent: Novda, 2023 – 78 b.
9. M.E.Toirova. 2-sinfda O'qish savodxonligi darsligi, II-qism Toshkent: Novda, 2023 – 78 b.
10. M.E.Toirova. 2-sinfda O'qish savodxonligi darsligi, IV-qism Toshkent: Novda, 2023 – 78 b.
11. U.B.Aydarova.. 4-sinfda O'qish savodxonligi darsligi, III-qism Toshkent: Novda, 2023 – 78 b. 12. U.B.Aydarova. 4-sinfda O'qish savodxonligi darsligi, IV-qism Toshkent: Novda, 2023 – 78 b.